

## Odob-axloq qoidalarining foydalari

Joriy yilning 21 - sentabr kuni “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti talaba-yoshlari joylashgan 5 - talabalar turar joyida “Talaba-yoshlar o’rtasida odob-axloq qoidalari to’g’risida” tadbir o’tkazildi. Ushbu tadbirda fakultet dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini H.Eshova, tarbiyachi pedagog Sh.Islamova, tyutor A.Xayitova va talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Fakultet dekani talabalarga qarata odob-axloq, talabalar turar joyidagi tartib - intizomga rioya qilishi to’g’risida ma’lumotlar berib o’tdi. Shundan so’ng yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini H.Eshova har bir xonada yaratilgan sharoitlar bilan talabalarni tanishtirdi.



TTJ da tashkil etilgan talabalar kengashi faollari doimiy ravishda talabalar turar joyida tartib - intizomni saqlashda kamarbasta ekanligi, sanitar-gigienik holatini saqlash bo'yicha talabalarga tushuntirish ishlari olib borildi. Ushbu talabalar o'zlariga birlashtirilgan xonalarda barcha sharoitlar qilingan, xonalar gigienik jihatdan toza va saranjom sarishta. Talabalarimiz uchun fakultetga qarashli akademik litsey yotoqxonasida barcha sharoitlar mavjud bo'lib, shuningdek, ma'naviyat xonasida dars tayyorlash hamda madaniy hordiq chiqarishlari uchun televizor, kitob va gazeta, jurnallar ham bor. Talaba-yoshlarimizdan faqat tartib-intizom, xona va oshxonalarni ozoda tutishlari talab qilinadi, xolos.

**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti**